



KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA BOG'LOVCHI BIRLIKLARNING GRAMMATIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI: QIYOSIY TAHLIL

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19007203>

Azimova Nigora Axmad qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola koreys va o'zbek tillarida bog'lovchi birliklarning grammatik va funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiladi. Koreys tilida bog'lovchilar (접속사) va bog'lovchi qo'shimchalar (연결어미) gap qismlarini bog'lab, teng (대등) hamda tobe (종속) munosabatlarni ifodalaydi. O'zbek tilida ham sof, nisbiy va qo'shimchasimon bog'lovchilar mavjud, biroq ayrim birliklarning turkumiy mansubligi bahsli. Qiyosiy tahlil ularning funksional yaqinligi va grammatiklashuv darajasidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: koreys tili, o'zbek tili, bog'lovchi, bog'lovchi qo'shimcha (연결어미), teng bog'lanish (대등), tobe bog'lanish (종속), qiyosiy tilshunoslik.

GRAMMATICAL AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF CONJUNCTIVE UNITS IN KOREAN AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS

Nigora Azimova

Teacher, Department of Korean Philology

Uzbekistan State World Languages University

Abstract: This article presents a comparative analysis of the grammatical and functional characteristics of conjunctive units in Korean and Uzbek. In Korean, conjunctions (접속사) and connective endings (연결어미) link parts of sentences and express both coordinate (대등) and subordinate (종속) relations. Uzbek also possesses pure, relative, and affix-like conjunctions; however, the categorical status of some units remains debatable. The comparative analysis demonstrates both similarities and differences in their functional roles and in the degree of grammaticalization.

Keywords: Korean language, Uzbek language, conjunction, connective ending (연결어미), coordination (대등), subordination (종속), comparative linguistics.



KIRISH

Tilning grammatik tizimida sintaktik munosabatlarni ifodalovchi vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday vositalardan biri bo'lgan bog'lovchi birliklar gap bo'laklari hamda qo'shma gap tarkibidagi sodda gap komponentlarini o'zaro bog'lash, ular o'rtasidagi mantiqiy-semantik aloqalarni ifodalash hamda matn yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, o'zbek tilidagi va, ammo, yoki, chunki kabi bog'lovchilar tenglik, zidlik yoki sabab munosabatlarini yuzaga chiqaradi: U keldi va ishni boshladi; Men bormoqchi edim, ammo vaqt yetmadi. Koreys tilida ham xuddi shunday funksiyani bajaruvchi 그리고 “va”, 그러나 “ammo”, 또는 “yoki” kabi mustaqil bog'lovchilar mavjud:

그는 왔고 그리고 일을 시작했다 (U keldi va ishni boshladi),

가고 싶었지만 시간이 없었다 (Bormoqchi edim, ammo vaqt yo'q edi). Bog'lovchilar nafaqat tobe, balki teng munosabatlarni ham ifodalashi bilan boshqa yordamchi so'z turkumlaridan farqlanadi. Shu bois bog'lovchi birliklarning grammatik tabiati, shakl-mazmun munosabati hamda funksional xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Turli tipologik tizimga mansub tillarda bog'lovchi vositalarning shakllanishi va amal qilish mexanizmi

o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agglyutativ tuzilishga ega bo'lgan koreys va o'zbek tillari bu jihatdan qiyosiy tadqiq uchun qulay material beradi. Koreys tilida sintaktik bog'lanish asosan ikki vosita orqali amalga oshadi: mustaqil bog'lovchilar (접속사) hamda fe'l negiziga qo'shib keluvchi bog'lovchi qo'shimchalar (연결어미). 접속사 turkumiga mansub birliklar alohida so'z sifatida qo'llanib, gaplar yoki gap bo'laklarini teng va zid munosabatda bog'lasa, masalan: 책을 읽었다 그리고 잤다 (Kitob o'qidi va uxlab qoldi), 연결어미 shakllari esa predikativ asosga qo'shib, qo'shma gap komponentlari o'rtasidagi ketma-ketlik, sabab-natija, shart, zidlik kabi tobe munosabatlarni ifodalaydi: 비가 와서 못 갔다 (Yomg'ir yog'gani uchun bora olmadim), 가지만 못 만났다 (Bordim, lekin uchrasha olmadim). Shunday qilib, koreys tilida bog'lovchi funksiyaning sezilarli qismi morfologik vositalar orqali amalga oshadi.

O'zbek tilida ham bog'lovchi vositalar tizimi keng rivojlangan bo'lib, sof bog'lovchilar (va, lekin, chunki), nisbiy bog'lovchilar (–ki), hamda qo'shimchasimon bog'lovchilar (–ib, –sa, –gach) orqali turli sintaktik va semantik munosabatlar ifodalanadi:

U kelib gapirdi (ketma-ketlik),

Yomg'ir yog'sa, bormaymiz (shart),

U kelgach, majlis boshlandi (vaqt munosabati). Biroq ayrim birliklarning turkumiy maqomi masalasida tilshunoslar orasida yakdil qarash mavjud emas.



Masalan, –sa shakli ayrim tadqiqotlarda shart qo‘shimchasi, boshqalarida qo‘shimchasimon bog‘lovchi sifatida talqin qilinadi; bilan birligi esa ba‘zan ko‘makchi, ba‘zan bog‘lovchi vazifasida izohlanadi (ota bilan ona keldi). Bu holat bog‘lovchi birliklarning grammatiklashuv darajasi, mustaqillik mezoni hamda sintaktik bog‘lanishdagi funksional yukining yetarli darajada tizimli o‘rganilmaganligi bilan izohlanadi.

Koreys va o‘zbek tillarida bog‘lovchi birliklarni qiyosiy o‘rganish bir necha ilmiy jihatdan muhim natijalar berishi mumkin. Avvalo, bu ikki tilning bog‘lovchi tizimida morfologik va sintaktik vositalarning o‘zaro nisbatini aniqlashga yordam beradi: koreys tilida bog‘lovchi munosabatlarning katta qismi fe‘lga qo‘shiluvchi 연결어미 orqali ifodalansa, o‘zbek tilida mustaqil bog‘lovchilar bilan bir qatorda qo‘shimchasimon vositalar ham faol qo‘llanadi. Ikkinchidan, bog‘lovchi qo‘shimchalarning grammatiklashuv jarayoni va ularning mustaqil bog‘lovchilar bilan funksional chegarasini belgilash imkonini yaratadi (masalan, koreyscha –고 va o‘zbekcha –ib shakllarining ketma-ketlik munosabatini ifodalashi). Uchinchidan, teng va tobe bog‘lanishning ifodalanish usullaridagi tipologik o‘xshashlik va farqlarni aniqlash orqali umumiy til nazariyasi hamda qiyosiy tilshunoslik uchun muhim xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.

Asosiy qism

1. Koreys va o‘zbek tillarida bog‘lovchi birliklarning grammatik tabiati

Koreys va o‘zbek tillarida bog‘lovchi birliklar sintaktik munosabatlarni ifodalovchi muhim grammatik vositalardan hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi gap bo‘laklari yoki qo‘shma gap komponentlari o‘rtasida teng (koordinativ) va tobe (subordinativ) aloqalarni yuzaga chiqarishdan iborat. Har ikki til agglutinatip tipga mansub bo‘lgani sababli bog‘lovchi munosabatlar nafaqat mustaqil so‘zlar, balki affiksalar vositalar orqali ham ifodalanadi.[1]

Koreys tilshunosligida bog‘lovchi vositalar odatda ikki asosiy turga ajratiladi: 접속사 (mustaqil bog‘lovchilar) va 연결어미 (bog‘lovchi qo‘shimchalar).[2] 접속사 alohida so‘z sifatida qo‘llanib, gaplar yoki sintaktik birliklarni teng munosabatda bog‘laydi: 그리고 “va”, 그러나 “ammo”, 또는 “yoki”. Masalan:

철수는 왔다 그리고 영희도 왔다 - “Cholsu keldi va Yonghi ham keldi.”

연결어미 esa fe‘l negiziga qo‘shilib, qo‘shma gap komponentlari o‘rtasida turli semantik munosabatlarni ifodalaydi:

비가 와서 못 갔다 — sabab-natija

가지만 못 만났다 — zidlik

집에 가고 잤다 — ketma-ketlik

O‘zbek tilida ham bog‘lovchi birliklar morfologik va leksik vositalar



orqali ifodalanadi. Mustaqil bog'lovchilar (va, lekin, yoki, chunki) teng yoki sabab munosabatlarni bildiradi:

U keldi va ishni boshladi.

Men bormadim, chunki vaqt yo'q edi.

Affiksalar yoki qo'shimchasimon vositalar esa predikativ asosga qo'shilib, tobe munosabatlarni yuzaga chiqaradi:

U kelib gapirdi (ketma-ketlik)

Yomg'ir yog'sa, bormaymiz (shart)

U kelgach, majlis boshlandi (vaqt)

Shunday qilib, har ikki tilda bog'lovchi funksiyaning leksik va morfologik vositalar orqali parallel tarzda ifodalanishi kuzatiladi[3].

2. Bog'lovchi birliklarning tasnifi va qiyosiy tavsifi

O'zbek tilshunosligida bog'lovchilar odatda uch turga ajratiladi: sof bog'lovchilar, nisbiy bog'lovchilar va qo'shimchasimon bog'lovchilar.

Sof bog'lovchilar mustaqil so'z shaklida qo'llanadi va teng munosabatlarni ifodalaydi: va, hamda, lekin, biroq, yoki kabi. Bu tur koreys tilidagi 접속사 bilan to'la mos keladi.

Nisbiy bog'lovchilar asosan -ki vositasi orqali ifodalanib, ergash gapni bosh gapga bog'laydi:

Men bilamanki, u keladi.

Bu shakl koreys tilidagi subordinativ bog'lovchi vositalarga, xususan, sabab yoki izoh munosabatini bildiruvchi 연결어미 turlariga funksional jihatdan yaqin.

Qo'shimchasimon bog'lovchilar fe'l negiziga qo'shilib, ergash munosabatlarni

ifodalaydi: -ib, -sa, -gach, -guncha. Bu tur koreys tilidagi 연결어미 bilan eng yaqin qiyosiy muvofiqlikka ega. Masalan:

koreyscha -고 ↔ o'zbekcha -ib (ketma-ketlik)

koreyscha -면 ↔ o'zbekcha -sa (shart)

koreyscha -아서/어서 ↔ o'zbekcha -gani uchun / -ib (sabab)

Bu o'xshashliklar ikki tilda bog'lovchi munosabatlarning affiksalar vositalar orqali grammatiklashganini ko'rsatadi.

3. Grammatiklashuv darajasi va turkumiy chegaralar

Bog'lovchi birliklarning muhim nazariy masalalaridan biri ularning grammatiklashuv darajasi va boshqa yordamchi birliklardan chegaralanishidir. O'zbek tilida bilan birligi bunga misol bo'la oladi:

Otam bilan onam keldi - teng bog'lovchi vazifasi

ukam bilan bordim - ko'makchi vazifasi

Koreys tilida ham ayrim 연결어미 shakllari bog'lovchi va grammatik affiks o'rtasidagi o'tish bosqichini ko'rsatadi. Masalan, -고 shakli ketma-ketlik bog'lovchisi sifatida qo'llansa-da, fe'lning grammatik kategoriyasiga ham yaqinlashgan.

Grammatiklashuv nazariyasiga ko'ra, mustaqil leksik birliklarning affiksalar vositaga aylanishi til rivojining tabiiy jarayoni hisoblanadi. Koreys tilida bog'lovchi munosabatlarning katta qismi aynan shu yo'l bilan morfologik shaklga



o'tgan bo'lsa, o'zbek tilida leksik bog'lovchilar va affiksial bog'lovchilar parallel mavjud.

4. Teng va tobe bog'lanishning ifodalanish usullari

Har ikki tilda bog'lovchi birliklar teng va tobe sintaktik munosabatlarni ifodalashda xizmat qiladi. Teng bog'lanishda komponentlar grammatik jihatdan mustaqil bo'ladi:

o'zb.: U keldi va ketdi.

kor.: 그는 왔다 그리고 갔다.

Tobe bog'lanishda esa ergash gap bosh gapga grammatik jihatdan qaram bo'ladi:

o'zb.: U kelsa, gaplashamiz.

kor.: 그가 오면 이야기하자.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, teng bog'lanish ikki tilda asosan mustaqil bog'lovchilar orqali, tobe bog'lanish esa ko'proq affiksial vositalar orqali ifodalanishi kuzatiladi. Bu esa agglutinatив tillar uchun xos tipologik xususiyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology. Chicago: University of Chicago Press, 1981.
2. Sohn H.-M. The Korean Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
3. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.